IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
SPECIAL ISSUE, VOLUME 5, ISSUE 2, 2023

XX ASR TURK ROMANCHILIGIDA RASHOD NURI GUNTEKIN IJODINING TUTGAN O‘RNI

Azimova Zilola
International School Of Finance Technology And Science Instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya
Mazkur maqolada XX asr turk romanchiligi va unda Rashod Nuri Guntekin ijodining ahamiyati.

Kalit so‘zlar
Tanzimot davri, G‘arbiy Yevropa madaniyati, turk nazmi va nasri, turk romanchiligi, qahramonlar ruhiy holati, hikoya, roman, pyesa.

Jahon adabiyoti tarixiga nazar tashlar ekanmiz, u hamisha kishilik jamiyati hayotidagi katta o‘zgarish va evrilishlarning aks sadosi bo‘lib kelganini ko‘ramiz. Har bir xalq hayotida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan tarixiy voqealar, qo‘zg‘olonlar, inqiloblar sodir bo‘ladi va ularning sodir bo‘lishiga sabab bo‘lgan mashhur shaxslar yashab o‘tadi. Turk xalqi ham o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida bu jarayonlardan xoli bo‘lmadi.

XIX asrning o‘rtalari Turkiya tarixida Usmonli imperiyasining keng ko‘lamdagi islohotlarni amalga oshirish davri, ya’ni Tanzimot davri (arabcha: tanzim – tartib) nomi bilan nom qozongan. Rashid pasha tomonidan tayyorlangan, 1839-yilda sulton Abdul Majid tomonidan ro‘yobga chiqarilgan islohotlar Turkiya iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish, moliya tizimini takomillashtirish, fan, adabiyot rivoji, turk ziyolilarining shakllanishiga qaratilgan edi. Ma’anaviy-ma’rifiy sohada mazkur ilohotlar dunyoviy bilim berish tizimini rivojlantirish, G‘arbiy Yevropa madaniyati bilan yaqindan tanishish, G‘arb davlatlari bilan nafaqat iqtisod, balki madaniyat sohasidagi o‘zaro aloqalarni kuchaytirishni qamrab olgan edi. Bu davr turk adabiyoti uchun o‘rta asr an’analaridan yangi davr adabiyotiga keskin o‘tish davri bo‘ldi.

XIX asrning 20-30-yillari turk adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari yangi ijtimoiy mavzularning paydo bo‘lishi, mazmundagi o‘zgarishlar va yangi shakliy izlanishlar sodir bo‘lganligi bilan belgilandi. Adabiyot oldiga qo‘yilgan eng muhim masala – milliy-ozodlik kurashi harakatlarini haqqoniy tasvirlash edi. Bu yo‘nalishning rivojlanishi Turkiyadagi ko‘plab yozuvchilarning ijod yo‘lini belgiladi. Demokratik ruhdagi adabiyotni barqarorlashtirish va yanada rivojlantirishga qaratilgan harakatlar tufayli bu ruhdagi adabiyotning nazariy asoslarini ishlab chiqish ehtiyoji tug‘ildi. Natijada 1928-yili bir guruh adabiyotshunoslar «Yetti mayoq» nomli kitobni nashr etdilar. Uning so‘zboshisi o‘ziga xos manifest tarzida yozilgan bo‘lib, unda

adabiy jarayonlardagi yangilanishlar, undagi tematik ko‘lamning kengayganligi, yangi badiiy shakl xususidagi izlanishlar o‘z ifodasini topgan edi[1].

Turk nazmi va nasrining turli masalalari, nasriy hamda dramatik adabiy tur va janrlarning shakllanishi omillari rus adabiyotshunoslari tomonidan ham anchagina atroflicha yoritilgan[2]. Shuningdek, Ahmet Kabakli[3], Beshir Ayvaz o‘g‘li[4], Kevdet Kudret[5], Ibrohim Tarali, Riza Mollof[6], va boshqa bir qator turk adabiyotshunoslarining ilmiy ishlarida turk romanchiligi turli qirralari ochib berilgan. O‘zbek adabiyotshunoslari ham turk adabiyotining ayrim masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda.

Turk adabiyotining eng gullab yashnagan davri deb XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi davrini aytish mumkin. Bu davrda turk adabiyotida ancha o’zgarishlar ro’y berdi. Turk adabiyotida proza (hikoya, roman) va dramaturgiya janrlarida asarlar yozildi, kitoblar chop etildi va turk poeziyasida bir qancha maktablar barpo etildi. Turkiyadagi ijtimoiy taraqqiyot natijasida maydonga kelgan davrni adabiyotdagi so’z ustalari o’z asarlarida eng avvalo oddiy xalq hayotini, qiynalgan odamlar, oilalar hayotini yoritib bera boshladilar. Mana shunday jonkuyar yozuvchilardan biri bu – Rashod Nuri Guntekindir.

"Choliqushi" asarining bosilishi munosabati bilan katta shuhrat qozongan Rashod Nuri Guntekin ijodi Turkiyada, sobiq Sovet Ittifoqi davlatlarida, rus turkologiyasida, umuman, xorijda keng o‘rganilgan. Dastlabki yirik tadqiqot sifatida Turkiyada Murod O‘rozning Rashod Nuri Guntekin ijodiga bag‘ishlangan kitobi bosilib chiqdi[7]. Bu monografiyada yozuvchi hayoti, ijodi va shaxsiyati haqida so‘z

---

[1] Литература Востока в новейшее время (1917-1945). М.: 1977. Стр.72

[2] Современная Турция, М., 1965; Гарбузова В.С. Поэты средневековой Турции. Л., 1963; Фиш Р.Г. Писатели Турции – книги и судьбы. М., 1963; Айзенштейн Н.А. Из истории турецкого реализма. М., 1968; Гарбузова В.С. Поэты Турции X1X в. Л., 1970; Кямилев Х., У истоков современной турецкой литературы, М., 1967; Алькаева Л., Бабаев А., Турецкая литература. Краткий очерк, М., 1967; Айзенштейн Н. А., Из истории турецкого реализма, М., 1968;

[3] Ahmet Kabaklı. Türk Edebiyatı 5.cilt. İstanbul, 2004

[4] Beşir Ayvazoğlu. Tarık Buğra - Güneş Rengi Bir Yığın Yaprak. Biyografi, 1995;. Küçük Ağa Tarık Buğra. Kapı Yayınları 2002.

[5] Cevdet Kudret. Türk Edebiyatında Hikâye ve Roman. İstanbul, 1987

[6] İbrahim Tatarlı, Rıza Mollof. Hüseyin Rahmi’den Fakir Baykurt’a kadar Türk romanı. Sofya, 1968

[7] **Murat Uraz. Reşat Nuri. Hayatı. Şahsiyeti. Eserleri ve Eserlerinden parçalar. İstanbul, 1932.**

yuritilib, asarlarining nomlari va ulardan parchalar ilova qilingan edi. Xilmi Yujebashning kitobida esa Guntekin haqida turli davrlarda gazeta va jurnallarda e'lon qilingan maqolalar jamlangan[8]. O'zbek adabiyotida Rashod Nuri Guntekin ijodi va turk romanchiligi haqida Miad Hakimovning "Turk romanchiligi va Rashod Nuri haqida ikki og'iz so'z" nomli maqolasi chiqqan[9]. Shuningdek, Adham Alimbekovning universitet talabalari uchun tayyorlagan ma'ruzalar matnilarida adib hayoti va ijodi haqida ma'lumot berilgan[10]. Guntekin tavalludiga 100 yil to'lishi munosabati bilan maqolalari matbuotda nashr etilgan.[8]

Xorijlik olimlardan nemis turkologi Otto Ships o'zining "Zamonaviy turk nasri" kitobida bir qator turk nasri namoyandalari qatorida Rashod Nuri haqida ham so'z yuritib, uning romanlari va hikoyalari haqida atroflicha fikr bildirib, asarlarining qisqacha mundarijasini keltirgan[11]. Shuningdek, Rashod Nuri Guntekin ijodi yuzasidan fransuz turkologi Edmond Sossi va chex sharqshunosi Jozef Blaskovich ham o'z asarlarida fikr bildirganlar[12].

Adib Rashod Nurining adabiyot va san'atga hurmati cheksiz edi. Universitetda u mashhur adabiyotshunoslar Hamidullo Subxiy, shoir Mehmed Okif, Halid Ziyalardan dars oladi. U o'z davrining mashhur yozuvchisi Holid Ziyo Ushoqlini[13] o'ziga ustoz deb biladi, u uning asarlaridan o'ziga ko'p narsa oladi. U shunday degandi «Bir kun asar yozmoqqa loyiq biror narsa yozolsam, buning uchun Holid Ziyo Beyga burchlidirman». Bolaligidanoq aholining qiyin turmush tarzini ko'rgan Rashod Nuri o'z asarlarida asosan shu hayotni namoyon etishga, uni ochib berishga harakat qilardi. Rashod Nurining romanlari boshqa yozuvchilarnikiga qaraganda ancha rang-barangdir. «Muhabbat Simfoniyasi», «Cholіqushi»ga o'xshash ishqiy romanlari, «Tegirmon» satirik romandir. «Qon da'vosi», «Yashil kecha» romanlarida ijtimoiy ruh ustuvor. Yozuvchi «Yashil kecha» asarida Shohin afandi obrazi orqali shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatib beradi.

---

[8] **Hilmi Yucebaş. Bütün Cepheleriyle Reşat Nuri. İstanbul, 1957.**

[9] **Ҳакимов М.** Турк романчилиги ва Рашод Нури ҳақида икки оғиз сўз./**Рашод Нури Гунтекин. Чоликуши. -Т.: 1976.**

[10] Алимбеков А. XX аср турк насри тараққиёти (маърузалар матни). Т.:2001; Алимбеков А. Танзимат даври турк адабиёти (маърузалар матни). Т.: 2002; A.Alimbekov Tariq Bug'ra va turk romanchiligi // Jahon adabiyoti, 2006 yil, iyun, 6-son, B.123-124.

[11] Otto Spies. Die turkish Prosaliteratur der Gegenwart. Leipzig, 1943.

[12] Edmond Sausey. Prosateurs turcs contemporains. Paris, 1935.
Dr. Josef Blaskovics. Dejiny tuiecke literaturu. Praha, 1933.

[13] R.N.Guntekin. " Otash Kechasi" 4 bet.

«Yashil kecha» romani haqida esa Nozim Hikmat romanda ko'tarilgan mavzu o'sha davr Turkiyasi uchun juda kerakligi haqida bejiz aytmagan. Bu asar jaholatparast dindorlarga qarshi yaratligan asarlarning eng yaxshi namunalaridan biri sifatida sanalishi aytib o'tilgan. Adib bu romanida turk adabiyotida birinchilardan bo'lib, o'z maqsadi yo'lida hech nimadan qaytmaydigan, ongli ravishda o'zini xalq ishiga bag'ishlagan kurashchi obrazini yarata olgan.

"Muhabbat simfoniyasi" romanida R.N.Guntekinni asar qahramonlari qiyofasini yaratishda boshqa romanlaridan o'zgacha yo'l tutganini va aynan qahramon ichki dunyosi va tashqi ko'rinishi uyg'unlashganiligini ko'ramiz. Bu romanda asar qahramonlari qiyofasi, tashqi ko'rinishiga nafaqat muallif tilidan, balki boshqa personajlar tilidan ham baho beriladi. Personajlarning asar qahramonlari qiyofalari – Kanon, Lamia va hokazolarga bo'lgan munosabatlaridan kelib chiqqan holda ham tasvirlanadi. Va albatta, bunda boshqa personajlarning Kanon va Lamialarga bo'lgan munosabati (ijobiy va salbiy) bunga asos bo'ladi.

Rashod Nuri romanlarining ko'plari turk yozuvchilarinikidan farqli bo'lib, ular vatanparvarlik ruhining kuchliligi, voqealarning markazdan uzoqda sodir bo'lishi orqali ham ajralib turadi. Rashod Nuri Guntekin kitobxonni qahramonlar ruhiy holatini chuqurroq tushunishi, voqealar ichiga tezroq kirishi uchun xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalandi,orginal voqealar bilan boyitishga harakat qiladi. R.N.Guntekin turk adabiyoti tarixida hikoyanavis, ulkan nasr ustasi, dramaturg sifatida alohida o'rin tutadi. Uning ko'plab hikoyalari, romanlari, pyesalari bugungi kunda ko'plab jahon xalqlarining ma'naviy mulkiga aylanib, ruhiy ozuqa berib kelmoqda. Rashod Nurining «Choliqushi», «Tamg'a», «Yashil kecha», «Qon da'vosi», «Muhabbat simfoniyasi», «Xazonrezgi» kabi romanlari, ko'plab hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilingan va u kitobxonlar tomonidan sevib mutoala qilinib kelmoqda.

Bugungi kunda Rashod Nuri Guntekinning yangi asarlari tarjima qilinib, avvalgilari qayta nashr etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Айзенштейн Н. А., Из истории турецкого реализма, М., 1968. - 285 с.
2. Алимбеков А. XX аср турк насри тараққиёти (маърузалар матни). Т.:2001.
3. Алимбеков А. Танзимат даври турк адабиёти (маърузалар матни). Т.: 2002.
4. Ахмедов А.Дж. Решад Нури как романист. (Автореферат дисс. на соискание учен, степени канд. филол. наук). Баку, 1964. -22 с.
5. **Ҳакимов М.** Турк романчилиги ва Рашод Нури ҳақида икки оғиз сўз**./Рашод Нури Гунтекин. Чоликуши. -Т.: 1976.**
6. Р.Н.Гунтекин. Муҳаббат симфонияси. Т.2005.